

Yoshlar kelajagi uchun barchamiz mas'ulmiz!



Assalomu alaykum hurmatli ota-onalar!

Avvalambor, sizlarni aziz farzandingiz o'rta ta'lim maskanini bitirib, yorug' orzu-umidlar bilan katta hayot ostonasiga qadam qo'yayotgani bilan chin dildan tabriklayman.

Bugun yurtimizda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev tashabbusi va topshiriqlari bilan yoshlarimizni chuqur bilim va malakaga ega bo'lgan, yetuk va barkamol shaxs etib tarbiyalashga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda. Ana shunday ezgu maqsad yo'lida ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Sizning jondan aziz o'g'il-qizlaringiz ham o'zining ezgu orzu-maqсадlariga erishib, jamiyatda munosib o'rin topishiga ishonchimiz komil, albatta. Bu yo'lda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash barchamizning muqaddas burchimiz hisoblanadi.

Agar farzandingiz oliy o'quv yurtida ta'lim olishni maqsad qilib, talabalik baxtiga muyassar bo'lsa, uning yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishi uchun davlatimiz tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan.

Oliy o'quv yurtlariga hujjat topshirmagan yoki test sinovlarida yetarli ball to'play olmagan yoshlarimizni ish bilan ta'minlash kafolatini shaxsan men hudud rahbari sifatida o'z zimmamga olaman. Shu maqsadda maxsus "Yoshlar daftari" asosida har bir yoshning mehnat faoliyatini nazoratinga olaman.

Shu bilan birga, farzandlarimizning xohish va istaklariga qarab, ularning professional ta'lim muassasalarida talab yuqori bo'lgan kasb va mutaxassisliklarga ega bo'lishlari uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etamiz.

Agar farzandingiz xorijiy mamlakatlarda ishlash niyatida bo'lsa, davlatimiz tomonidan Mudofaa vazirligi tizimida yo'lga qo'yilayotgan yangi tartibga ko'ra, ular uchun qisqa muddatlarda zamonaviy kasb-hunar egallash va xorijiy tillarni o'rganish imkoniyati yaratiladi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad - fuqarolarimizni chet davlatlardagi kompaniyalarga maxsus tayorlovdan o'tgan va markazlashgan holda ishga yuborish, ularning o'z mehnatiga yarasha munosib haq olishi hamda haq-huquqlarini ta'minlashdan iboratdir.

Xorijda halol mehnat qilib, daromad orttirgan yosh mutaxassislarimiz va ularning oilalariga shahrimizda imtiyozli ipoteka kreditlari asosida zamonaviy uy-joylar qurib beriladi.

Aziz ota-onalar!

Sizlarni jonajon O'zbekistonimiz taraqqiyotiga hissa qo'shadigan sog'lom va bilimli farzandni tarbiyalab kamolga yetkazganingiz bilan tabriklab, o'g'il-qizlarimizning jamiyatda mustahkam o'rin egallashi uchun mahalliy ijro organi rahbari sifatida men ham mas'ul va javobgar ekanimni yana bir bor ta'kidlayman.

Sizlarni ishontirib aytamanki, yoshlarimizning bilim olishi, ularni kasb-hunarga o'rgatish, ishga joylashtirish va uy-joy bilan ta'minlash hamda o'z bizneslarini yo'lga qo'yishi borasida birgalikda harakat qilib, bamaslahat ish

olib boramiz.

Shu tariqa kelajagamiz egalari bo'lgan yoshlarimizni, ularning hurmatli otalarini rozi qilgan bo'lamiz.

Ana shu ezgu maqsad yo'lida barchangizni hamkorlikka chaqiraman.

E'tiboringiz uchun rahmat!